

**Xalq deputatlari Taxiatoş
tumani Kengashi
QARORI**



**Xaliq deputatlari Taqiyatas
rayonliq Ken'esi
SHESHIMI**

2022 - yil 15 - aprel

VI-42-46-13-215-K/22

Taxiatoş tumani hokimligi

Jinoyat ishlari bo'yicha Taxiatoş tumani sudi raisi A.B.Koshanovning 2022-yilning 1-choragi davomida tumanda qonunchilikni mustahkamlash va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi amalga oshirilgan ishlari yuzasidan axboroti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning rahbarligida 2020-yil 30 iyun kungi "Odil sudlovni ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshli kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi kengaytarilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 49-sonli Bayoni 2-bandida Oliy Majlis deputatlari va senatorlari o'zlari saylangan hududlarda sudyalar korpusi, sektor rahbarlari va jamoatchilik ishtirokida doimiy muloqatlar o'tkazib, jamoatchilik ko'targan odil sudlov va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muommalarni mahalliy Kengashlarda har chorakda tanqidiy muhokama qilib borishlari belgilangan.

Shunga ko'ra, Oliy Majlis Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish amaliyotining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-104-1-U-sonli qarori qabul qilinib, unda Qoraqalpoqiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari tomonidan sudning fuqarolar huquqlari va erkinliklari, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyatlari to'g'risida mahalliy Kengashlarga har chorakda axborot taqdim etib borish nazarda tutilgan.

"Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yana bir qarori qabul qilinib unga ko'ra, fuqarolar va tadbirkorlik

sub'ektlariga ko'rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, har bir murojaatni ko'rib chiqish jarayonining onlayn kuzatib borilishini ta'minlash, sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish;

sudlarda odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash uchun vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan elektron ma'lumotlar almashinuvini yanada kengaytirish;

maxsus axborot dasturlarini joriy etish orqali sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

sud majlislarida masofadan turib, jumladan, mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, ish bo'yicha taraflar uchun sud qarorlarini onlayn tarzda olish imkoniyatini yaratish;

sudning axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlari axborot va kiberxavfsizligini ta'minlash, xizmat axborotlari va ma'lumotlarini kompleks himoya qilish bo'yicha choralarni kuchaytirish vazifasi yuklatildi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Taxiatosh tumani sudi raisi A.B.Koshanovning 2022-yilning 1-choragi davomida tumanda qonunchilikni mustahkamlash va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha olib borilgan ishlari yuzasidan axborotini eshitib va muhokama qilib O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,18,19 va 24-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, xalq deputatlari Taxiatosh tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Jinoyat ishlari bo'yicha Taxiatosh tumani sudi raisi A.B.Koshanovning 2022-yilning 1-choragi davomida tumanda qonunchilikni mustahkamlash va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha olib borilgan ishlari yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jinoyat ishlari bo'yicha Taxiatosh tumani sudi raisi A.B.Koshanovga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020 yilgi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga murojaatnomasida Sud raislari tomonidan sudyalarning

faoliyatini baholash, Sud tizimida amalga oshiriladigan islohotlar bo'yicha ilgari surgan takliflarini aholi va yoshlar orasida keng targ'ib qilish tavsiya etilsin.

3. Jinoyat ishlari bo'yicha Taxiatosh tumani sudiga tuman huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirish;

tumandagi jinoyatchilik ko'rsatkichlari o'sishiga yo'l qo'ygan ovul va mahalla fuqarolari yig'inlarida jinoyatchilikning kelib chiqish va ortib ketish sabablarini muhokama qilish hamda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida axoli o'rtasida huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlarini va tadbirlarini tuman huquqni muhofaza etuvchi organlari bilan hamkorlikda olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish qilish Xalq deputatlari Taxiatosh tuman Kengashining Sud xuquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari Ch.Nurqillaevga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish vazifasi yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash Raisi



I.I.Matkarimov